

O'zbekistonda kam uchraydigan kasalliklar diagnostikasiga bag'ishlangan davra suhbati tashkil etildi

Bugun, 13-sentabr kuni O'zR FA Immunologiya va inson genomikasi instituti tomonidan Rossiya va Qozog'istondan tashrif buyurgan xalqaro ekspertlar ishtirokida "O'zbekistonda kam uchraydigan kasalliklar diagnostikasi va davolashning dolzarb masalalari" mavzusida davra suhbati o'tkazildi. Unda respublikamizdagi yetakchi soha mutaxassislari ishtirok etdi.





Davra suhbati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentyabrdagi "Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4440-son hamda 2022-yil 25-apreldagi "2022 — 2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi 216-sonli qarori doirasida tashkil etildi.

Davra suhbатини о'tказишдан асосиј мақсад кенг жамоатчилик е'tборини кам учрайдиган касалликларга чалинган беморларинга, республикамиз тиббијот ва илмиј ҳамjamiyati дуч келайотган қиyingchiliklarga jalb etish, кам учрайдиган касалликлarning малакали diagnostikasi ва terapiyasini rivojlantirish, shuningdek, yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish учун yangi imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Klinik, immunologik va epidemiologik tadqiqotlar o'tказишга qaratilgan qo'shma ilmiy-tadqiqot va ilmiy-amaliy loyiha va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish hamkorlikning muhim yo'nalishi bo'ladi.